

**SHARQ ALLOMALARINING MA'NAVIY MEROSIDA
BAHOUDDIN NAQSHBAND SIYMOSINI YORITISH MASALALARI**

Ravshanov Akmal Maxmudovich

Samarqand davlat chet tillar instituti

tatqiqotchisi

akmalravshanov062@gmail.com

Jahon xalqlari madaniy-ma'naviy merosining tarkibiy qismi hisoblanib, unda ilgari surilgan falsafiy-irfoniy meros asrlar davomida butun insoniyatni ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini shakllantirish, yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda. Jumladan, buyuk tasavvufchilik namoyondasi Bahouddin Naqshband siymosini o'rganish muhim vazifaga aylanmoqda.

Xususan, Fahriddin Ali Safiy o'zining "Rashahot ayn al hayot" asarida hazrat xoja Bahouddin zikrini keltirib: "Ammo haqiqat yuzasidan xoja uvaysiy bo'lganlar va hazrat xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyaning tarbiyat topganlar" deb ta'kidlagan. Bu bilan Naqshbandning uvaysiylikni o'zidan oldin o'tgan Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyaning (vafoti 1180 yoki 1220) ruhoniyatidan tarbiyat topganligi bilan izohlangan. Bahouddin Naqshband so'fiylik yo'lida Muhammad Boboiy Samosiy, Halil ota, Amir Kulol, Orif Diggaroniy, Qusam Shayxlardan bevosita tarbiya olgan. Shuning uchun tasavvuf tarixiga Bahouddin Naqshband "uvaysiy" nomi bilan kirgan.

XV asr yozma manbasi bo'lgan Muhammad Porsoning "Risolai qudsiya" asarida Bahouddin Naqshband haqida: "Hazrat xojamizning yo'llari uvaysiylik tariqasidir" deb yoziladi. Uvaysiylik tasavvufdagi o'ziga xos kamolot yo'lidir. "Uvaysiyning ma'nosi— avliyullohlardan bir toifa bo'ladiki, tariqat mashoyixlari va haqiqat buzrukvorlari ularni "uvaysiylik" deb atashadi.

Tasavvufshunos olimlar orasida "Bahouddin Naqshbanddan yozma meros qolganmi yoki yo'qmi?" degan savolga professor G.Navro'zova tadqiqotlarida

Bahouddin Naqshbandning “Avrod” nomli risolasi arxivlarda saqlanayotganligini aniqlab bergilan¹. “Sharq qo‘lyozmalari to‘plami”da Bahouddin Naqshbandning “Avrod” asari haqida “so‘fiyona duolar to‘plami” deb xulosa qilingan. “Duo” arabcha so‘z bo‘lib, xudodan yolvorib yaxshilik tilash ma‘nosini bildiradi. Bu asar bo‘lsa “Avrod” ya‘ni, virdlar ma‘nosini bildiradi. “Vird” arabcha so‘z bo‘lib, “tark etmay doim bajarib turiladigan vazifadir”. Ayni zamonda “Vird” tasavvufiy tushuncha ma‘nosida ham keladi: shayx va murshidlarning uzluksiz o‘qib yurishlari shart bo‘lgan tilovat, zikr, tasbeh, duo, salovat kabi majburiyatlarni o‘z ichiga olgan. Demak, “vird” tushunchasi duo tushunchasidan keng bo‘lib, asosiy maqsad talab etish emas, balki Tangri rizoligi uchun yuklangan vazifalarni bajarishdan iboratdir. “Avrod”da insonning “sharif”, ya‘ni mavjudotlar ichida eng mukammal qilib yaratilganligi haqida so‘z boradi².

Manbalarda Bahouddinning tug‘ilgan va vafot etgan joyi Qasri Orifon deb ko‘rsatilgan. Buxorodan bir farsang masofada (hozirgi Buxoro viloyati, Kogon tumanida) joylashgan bu manzil Bahouddin tug‘ilishidan oldin “Qasri Hinduvon”, ya‘ni hindular yashaydigan qasr nomi bilan atalgan. Sharqshunos V.A.Gordlevskiy (1876-1956) tadqiqotlari asosida aytish mumkinki, bu yerda avval budda diniga sig‘ingan hindular ham yashagan va shuning uchun unga shu nom berilgan³. Muhammad Boboi Samosiyning bashoratlari bilan Bahouddin tufayli bu mavze Qasri Orifon nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Naqshbandiya ta‘limotining vujudga kelishi va kamolotida tasavvuf ta‘limoti va tariqat arboblarning xizmatlari katta bo‘lgan. Bulardan Robiya Adaviya, Abdulqodir G‘iloniy, Jaloliddin Rumiy, Orif Revgariy, Xoja Ali Romitaniy qarashlarining ta‘siri haqida naqshbandshunos olim professor G.Navro‘zova tadqiqotlarida⁴ batafsil ma‘lumot berilgan.

¹ Наврўзова Г. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. Тошкент: Фан, 2007. – Б. 67.

² Ўша асар. – Б. 69.

³ Гордлевский В.А. Бахауддин Накшбанд Бухарский, (к вопросу о наслоениях в Исламе). Избр соч.Т.3. М.: 1962. С 385.

⁴ Наврўзова Г. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. Тошкент: Фан, 2007. – Б. 205; Наврўзова Г., Зойиров Э. Бухорои шарифнинг етти пири. Тошкент: Muharir nashryoti, 2018. – Б. 79; Наврўзова Г., Рахматова Х. Нақшбандия тушунчалари генезиси. Бухоро: Бухоро, 2010.

Naqshbandiya tariqati o'zining mazmun-mohiyati jihatidan yangi tarbiya usullari ya'ni suhbat ta'limi, yashirin, botiniy zikr, "anjuman ichra xilvat"ni targ'ib qilishi bilan ajralib turadi. Ya'ni Allohga yaqinlashishning butunlay yangi bo'lgan, sifat jihatdan avvalgi tariqatlardan tubdan farq qiladigan o'n bitta qoida, talab va usullarini ishlab chiqqanligi shular jumlasidandir.

Bahouddin Naqshband Naqshbandiya tariqatiga Yusuf Hamadoniy va Abdulxoliq G'ijduvoni asoslagan sakkiz tamoyilga uchta yangi – "vuqufi zamoni", "vuqufi adadi" va "vuqufi qalbi"ni kiritib, takomilga yetkazgan. Bu tariqatda ham "Dast ba kuru dil ba yor" shior qilib qabul etilgan.

Naqshbandiya tariqatida o'n bir asosiy tamoyillariga ushbu tariqatga kirgan har bir solik rioya qilishi shartdir. Bular quyidagilar:

Yusuf Hamadoniy tomonidan asoslangan to'rt tamoyil:

1. Xush dar dam — har nafasdan ogoh bo'lish;
2. Nazar bar qadam — har qadamni kuzatish;
3. Safar dar vatan — botindagi safar;
4. Xilvat dar anjuman— zohiran xalq bilan botinan haq bilan bo'lish.

Abdulxoliq G'ijduvoni tomonidan asoslangan to'rt tamoyil:

1. Yod kard — Tangrini eslash, zikr etish;
2. Bozgasht— zikrdan keyin "Tangrim, maqsadim sensan va seni rizoligingni tilayman" iborasini takrorlab, uni poklash;
3. Nigohdosht — qalb va xotira muroqabasi;
4. Yoddosht — har lahza Tangridan ogoh bo'lish.

Bahouddin Naqshband tomonidan asoslangan uch tamoyil:

1. Vuqufi zamoni — zamon-vaqtdan ogoh bo'lish, uni asrash;
2. Vuqufi adadiy — son-adaddan ogoh bo'lish, tavhidga yetish;
3. Vuqufi qalbi — qalb holatidan ogoh bo'lishdir.

Naqshbandiya tariqati keyinchalik Bahouddin Naqshband izdoshlari bo'lmish Xoja Ahrori Valiy, Maxdumi A'zam faoliyatlari tufayli nufuzi oshib Hindiston, Arabiston, Turkiya hududlariga tarqalgan.

Bahouddin Naqshband islom dinini hayot, shaxs va oila bilan, jamiyat

ravnaqi bilan bog'lab "Kam yegil, kam uxla va kam gapir" deb nasihat qilganlar. Sohibqiron Amir Temur ham bu shiorga amal qilib, arkonu davlatga, barcha mulozimlarga aytar so'zim shu bo'ldi: "Kam yenglar – ocharchilik ko'rmasdan boy-badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar – mukammalikka erishasizlar, kam gapiringlar – dono bo'lasizlar"⁵, – deb ta'kidlagan.

Naqshbandiyada tariqatga kirgan tolib tavba qilishi, payg'ambarimizning sunnatlariga qat'iy amal qilishi, shariatga zid bid'atlardan qochishi, taqvoni kuchaytirishga amal qilishi, zulm va nohaqlik qilmasligi, qarzini to'lashi, rozilik so'rashi, qazo namozlarini o'qishi, Tangrini har lahzada zikr qilishilozim.

Naqshbandiya tariqati quyidagi to'rt asos ustiga qurilgan:

1. Shariat bilan zohirni poklash.
2. Tariqat bilan botinni poklash.
3. Haqiqat bilan qurbi ilohiyga erishmoq.
4. Ma'rifat ila Allohga erishmoq.

Bahouddin Naqshband shohu gado barobarligi to'g'risidagi adolatli g'oyani ilgari surib, "Xojalik bandalikka to'g'ri kelmas, Alloh oldida barcha barobar" deb aytgan. Odamlarga yaxshilik qilish eng yuksak insoniy burch ekanligini ta'kidlab, "sham kabi yongil, elga oydinlik ulash, ammo o'zing xilvatda turgil" deb ta'kidlagan. Naqshbandiylikning asosiy mohiyatini tashkil etuvchi "Dil ba yoru dast ba kor" – "Dil yor (Alloh) bilan, qo'l ish bilan band bo'lsin" shiori hamma uchun, ayniqsa oddiy xalq va hunarmandlar uchun qo'l keladigan shiorga aylangan.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Amir Temur o'g'itlari. Toshkent: O'zbekiston, 2007.
2. Гордлевский В.А. Бахауддин Накшбанд Бухарский, (к вопросу о наслоениях в Исламе). Избр соч.Т.3. М.: 1962.
3. Наврӯзова Г. Накшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. Тошкент: Фан, 2007.

⁵ Amir Temur o'g'itlari. Toshkent: O'zbekiston, 2007. – B. 25.

4. Navro'zova G. Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi. Toshkent: Fan, 2007. – B. 205; Navro'zova G., Zoyirov E. Buxoroi sharifning yetti piri. Toshkent: Muharir nashryoti, 2018. – B. 79; Navrzova G., Raxmatova X. Naqshbandiya tushunchalari genezisi. Buxoro: Buxoro, 2010.